TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 7-dekabr | 330-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 28 noybrdagi 859-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrdagi "Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida"gi 783-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 28 noybrdagi "Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrdagi 783-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 859-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6-, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining "Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrdagi 783-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 859-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent tumanida avtomatlashgan kichik stansiyalarni o'rnatish bo'yicha manzilli ro'yxat 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning 1-ilovasida nazarda tutilgan avtomatlashgan kichik stansiyalarni xarid qilish uchun talab etiladigan mablag'lar 2024-yil Davlat byudjeti parametrlarida Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga yo'naltiriladigan transfertlar hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga o'tkazib berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal bo'limi (N.Bazarbaev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, ikki hafta muddatda ushbu qarorning 1-ilovasidagi manzilli ro'yxat asosida avtomatlashgan kichik stansiyalarni o'rnatish uchun zaruriy yer maydonlarini ajratish yuzasidan tegishli hujjatlarni viloyat hokimligiga kiritilishini ta'minlasin.

5. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi:

a) 2025-yil 1-martga qadar:

avtomatlashgan kichik stansiyalarning xarid qilinishi va manzilli ro‘yxat asosida o‘rnatilishini;

o‘rnatilgan avtomatlashgan kichik stansiyalar tegishliligi bo‘yicha Gidrometeorologiya xizmati agentligining hududiy markazlari hisobiga belgilangan tartibda o‘tkazilishini;

b) 2025-yil 1-martdan boshlab avtomatlashgan kichik stansiyalar ma’lumotlari atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilinishini va uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 7-dekabrdagi
330-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Avtomatlashgan kichik stansiyalarni o‘rnatish bo‘yicha MANZILLI RO‘YXAT

T/r	Hudud nomi	Postlar soni	O‘rnatiladigan manzil
	Toshkent tumani	1	Keles yo‘li ko‘chasi 8-uy